



O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy xavfsizlik" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari muhokama qilinadi. O'zbekistonda aholi sonining keskin ko'payishi, suv yerlarining keskin kamayishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hisobiga talabning ortishi tahlili o'rganiladi. Aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'sish sur'ati, mavjud yer resurslaridan foydalanish holati, fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish holati, ishlab chiqarish va rivojlanish istiqbollari, oziq-ovqat mahsulotlariga jahon va O'zbekistonda talabning ortishi kabi muammolar va ularning yechimlari taqdim etiladi.

KIRISH. Hozirgi kunda dunyo aholisi jadal sur'atlar bilan ko'payib, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda va qishloq xo'jaligi subyektlari ixtiyoridagi yer maydonlaridan samarali foydalanish borasida katta ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ko'plab rivojlangan mamlakatlarda fermer xo'jaliklarining yer resurslaridan oqilona foydalanishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmi jadal sur'atlarda ortib bormoqda [1]. Shuningdek, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalari samaradorligi va rentabelligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, fermer xo'jaliklarining yerdan samarali foydalanishi uchun barcha zarur xizmatlarni ko'rsatuvchi zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllantirildi [2]. 83 ming 900 dan ortiq fermer xo'jaligiga yer uchastkalarining uzoq muddatli ijaraga berilishi va bozor tamoyillarining joriy etilishi natijasida fermer xo'jaliklarini samarali shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim omili bo'lgan haqiqiy mulkchilik tizimini mustahkamlash, qo'shimcha yer va ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini yaratmoqda [3].

So'nggi yillarda O'zbekiston aholisi yiliga 600 ming kishiga ko'payib bordi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Dunyo mamlakatlarida aholi sonining keskin ko'payishi, iqtisodiyotdagi global iqtisodiy muammolar, taklifning kamayishi pirovardida qishloq xo'jalik yerlarida cho'llanish darajasining oshishi qashshoqlikning kuchayishiga olib keladi. Bunday muhim masala [4] yechimini topish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yaxshilash, boshqaruv tizimini soddalashtirish hisobiga kooperativlar tashkil etilishini ijobiy holat deb hisoblash mumkin [5].





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'zbekistonda oziq-ovqat ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'rib chiqilib, yangicha yondashuv va islohotlarni taqozo etadi [6, 7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son qaroriga asosan, "2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi"da oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish vazifalari belgilab berildi. Strategiyaning asosiy ustuvorliklariga erishish: aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; qulay agrobiznes muhitini va qiymat zanjirini yaratish; sanoatni boshqarishda davlat ishtirokini qisqartirish va investitsion jozibadorlikni oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash; qishloq xo'jaligida fan, ta'lim, axborot va konsalting xizmatlari tizimini rivojlantirish; va qishloq joylarini rivojlantirish belgilab berilgan [8, 9].

Oziq-ovqat xavfsizligi keng doiradagi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog'liq bo'lib, mamlakat taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir [10, 11]. Oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosati oziq-ovqat xavfsizligining to'rtta komponenti (oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi, uni sotib olish imkoniyati, undan foydalanish va barqarorligi) bo'yicha amalga oshiriladi.

Materiallar va usullar. O'zbekiston aholisining ortib borayotgani va eksportga bo'lgan talabning ortib borayotgani tufayli oziq-ovqat siyosati qanchalik muammoli ekanligini va u qanday samarali bartaraf etilayotganini amalda ko'rish mumkin.

Ma'lumki, dunyoda iqlim o'zgarishi tufayli qurg'oqchilik kuchaymoqda, yerlarning sho'rlanish darajasi va cho'llanish darajasi ortib bormoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va aholi jon boshiga ekin maydonlarining nisbati keskin kamayib bormoqda. O'zbekistonda 1990-yilda aholi jon boshiga 0,20 gektar sug'oriladigan yer to'g'ri kelgan bo'lsa, jahon mamlakatlarida o'rtacha 0,27 gektar yer to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 0,12 ga yoki 1990-yilga nisbatan 60,0 foizga kamaygan. Bu ko'rsatkich jahon mamlakatlarida 0,24 gektar yoki 89,0 foizni tashkil etishidan ham ko'rish mumkinki, bu ekin maydonlari hajmi keskin kamayib borayotganidan dalolat beradi. Dunyo aholisi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. O'zbekiston aholisi 1990-yilda 20,3 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 37 million kishini tashkil etdi yoki 182,3 foizga oshdi. Suvli yerlar hajmining 25,0 foizga kamayishi natijasida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda katta muammolar mavjudligini ko'rish mumkin.

1990-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo mamlakatlarida 5,4 milliard kishi yashagan bo'lsa, 2018-yilga kelib bu ko'rsatkich 7,0 milliardni tashkil etdi. Bundan esa aholini oziq-ovqat bilan ta'minlovchi suv yerlari hajmi 11,1 foizga kamayganini ko'rish mumkin. Demak, aholi sonining ko'payishi hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab ortib borayotganini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan 20,2 million gektar yerning atigi 20,7 foizi sug'oriladi. Bu ko'rsatkich so'nggi 15 yilda aholi soniga 24,0 foizga kamaydi. Bu esa, o'z navbatida, suv resurslarining keskin qisqarishi, qishloq xo'jaligi yerlarining





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

boshqa yer fondi toifalariga o'tkazilishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Olimlarning kelajakdagi prognozlariga ko'ra, yaqin 30 yilda sug'oriladigan maydonlar hajmi 20-25 foizga qisqarishi kutilmoqda. Binobarin, asosiy e'tibor sug'oriladigan yerlarni saqlash, har bir gektar yerdan unumli foydalanish borasida islohotlar o'tkazishga qaratilishi kerak.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida meva-sabzavot mahsulotlarini ko'paytirish dolzarbligicha qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi uch yilda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining xarid narxi 80 foizga oshgan. O'zbekistonda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, birinchi navbatda, moddiy resurslarga bo'lgan talabning qondirilmagani, iqlim o'zgarishi, aholi sonining ko'payishi, iqtisodiyotni boshqarishdagi kutilmagan muammolar va boshqa sabablar bilan bog'liq.

Natijalar va muhokama. 2024-yil 8-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 37534,454 ming kishini tashkil etdi. Umumiy aholidan shahar aholisi soni jami aholining 50,8 foizini, qishloq aholisi esa 49,2 foiz tashkil etdi. O'zbekiston doimiy aholisining 30,3 foizini mehnatga layoqatli yoshga yetmaganlar, 59,5 foizini mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2 foizini mehnatga layoqatli yoshdan kattalar tashkil etadi va aholi soni yiliga 600 ming kishiga ko'paymoqda. Aholini turli xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammolari tobora kuchayib bormoqda. Bu muammolarni hal etishda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish holatini tibbiy me'yorlar bilan bog'liq holda tahlil qilish lozim.

O'zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda. 2030-yilgacha davlat oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 25 mlrd. AQSh dollariga yetkazib berish maqsad qilib belgilangan. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish dehqon, fermer va klasterlar tomonidan amalga oshiriladi. Umuman olganda, sobiq agrar davlatni qishloq xo'jaligi rivojlangan industrial davlatga aylantirishda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni samarali deb baholash mumkin.

So'nggi yillarda aholining jadal o'sishi, yer resurslarining qisqarishi, suv va energiya resurslariga talabning ortishi, iqlim o'zgarishi oziq-ovqat xavfsizligi uchun o'ziga xos muammolarni keltirib chiqardi. Masalan, Orol bo'yidagi hududlarda suv yetishmasligi natijasida ekin maydonlarining cho'llanish darajasi keskin oshgani bilan bir qatorda Afg'oniston davlati xalqaro konvensiya kelishuvlarini buzgan holda suvning 4/1 qismini egallab olgan. 600 ming gektar maydonda dehqonchilik uchun uzunligi 280 km, eni 100 m, chuqurligi 8 metr bo'lgan kanal qazish yo'li bilan Amudaryodan suv olish ishlari olib borilmoqda. Bu Markaziy Osiyo davlatlarini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi eng xavfli muammolarga aylantirmoqda. Shu bois transchegaraviy muammolarni xalqaro miqyosda hal etish zarur, - deb hisoblaymiz.

So'nggi yillarda mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha jahon reytingida bosqichma-bosqich o'z o'rnini egallab bormoqda. 2018-yilda O'zbekiston Global ochlik indeksi bo'yicha 119 davlat orasida 52-o'rinni egallagan va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

12,1 indeks bilan “o‘rtacha” darajaga yetgan bo‘lsa, 2024-yilda bu holat ancha yaxshilanib, 22-o‘ringacha ko‘tarildi.

Shu bois qabul qilingan ustuvor yo‘nalishlarning asosiy maqsadi O‘zbekistonning barcha aholisi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va eksportga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Kelgusida mamlakatimizning 1,1 million gektar qishloq xo‘jaligi yerlari o‘zlashtiriladi, 535,6 ming gektar lalmi, yaylovlar va boshqa yerlardan yanada samarali foydalanish; qishloq xo‘jaligida o‘rtacha mehnat unumdorligi 1,7 barobar oshadi; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha qo‘shimcha 3,4 million tonna quvvatlar yaratiladi; mahsulotni qayta ishlash sur‘atini 30 foizga (2030-yilga borib eksport hajmi 20 milliard AQSH dollariga yetkaziladi) yetkaziladi.

O‘zbekiston agrar sanoat mamlakati bo‘lib, uning mehnat bilan band aholisining 60 foizdan ortig‘i qishloqlarda istiqomat qiladi, barcha mehnatkashlarning deyarli yarmi qishloq xo‘jaligida mehnat qiladi. Sobiq ittifoq davrida qishloq xo‘jaligi mahsulotining 40-45 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida 17-20 foizni tashkil etmoqda. Buning sababi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda boshqa, sanoat, qurilish, xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi, shuningdek, qishloq aholisining ushbu sohalarda ishlashga kirishishidir.

Yil davomida ichki va tashqi bozorga raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlar yetkazib berish uchun issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish uchun ko‘plab huquqiy hujjatlar zarur, - deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, samarasiz yoki unumdorligi past bo‘lgan paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish va ularning o‘rniga tovar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish dasturlarini joriy etish zarur. Boshqa ekinlar ekish bilan aholini yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

1991-2024-yillarda bug‘doy yetishtirish hajmi 395,1 foiz, sabzavot 3143,5 foiz, kartoshka 919,5 foiz, shakarqamish 246,4 foiz, meva va rezavorlar 552,1 foiz, uzum yetishtirish 352,8 foizga oshganini ko‘rish mumkin. O‘zbekistonda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirish orqali eksport hajmini oshirish asosiy masala hisoblanadi. Yer islohoti natijasida paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, o‘rniga o‘ta zarur mahsulotlar va meva-sabzavot yetishtirish uchun ajratildi.

O‘zbekistonda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar natijasida milliy iqtisodiyotda ham ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa, sobiq ittifoq tuzumi davrida qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 40-45 foizni tashkil etgan bo‘lsa, mustaqillikka erishgandan so‘ng bu ko‘rsatkich 1990-yilda 33,4 foizni, 2024-yilda esa 24.7 foizni tashkil etmoqda.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 1990-yilda 32,4 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 1,07 kvadrillion so‘mni tashkil etdi, bunda so‘m miqdorining oshishi amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘ri yo‘lda ekanini ko‘rsatadi. 1990-yilda yalpi ichki





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mahsulotda sanoatning ulushi 17,6%, qishloq xo'jaligi 33,4%, savdo 4,5%, qurilish 5,8%, soliqlar 11,3%, boshqalar 22,2% bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ularning salmog'ida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Sanoat ulushi 25,8 foiz, qishloq xo'jaligi 24,9 foiz, savdo 6,5 foiz, qurilish 6,2 foiz, soliqlar 7,2 foiz, boshqalar 35,7 foizni tashkil etadi.

Oldinda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun har bir mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, mahsulotning tovarlik darajasini oshirish orqali uning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish zarur. Bizning dehqonchilik asosan erta bahordan kech kuz oylarigacha davom etgan jarayon edi. Aholi ehtiyojini qondirish maqsadida keyingi yillarda barcha fasllarda issiqxonalarda sabzavot ekinlari yetishtirish jadal rivojlanmoqda. Yetishtirilgan mahsulotni ichki va tashqi bozorga sotish, ya'ni eksport qilish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa. O'zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan qo'shimcha qiymat yaratish hisobiga hosildorlikni oshirish, O'zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlarning sifat sertifikati bo'yicha tibbiy standartlardan ortiq yetkazib berish va sotish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijga bevosita iste'molchi yetkazib berish tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Yer osti va yer usti mahsulotlariga solinadigan aksiz solig'ining bir qismini ishlab chiqaruvchiga qaytarish, mahsulotlarni joriy etishni muvofiqlashtirish zarur bo'ladi. Transchegaraviy Amudaryo suvini xalqaro standartlar bo'yicha taqsimlash, undan foydalanishni nazorat qilish, Sibir suvlarini mamlakatga olib kirish orqali oziq-ovqat muammosini mumkin bo'lgan hal qilish dolzarb masala hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini boshqarishda erkin islohotlar o'tkazish, kooperatsiya tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish, dunyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, o'rmon xo'jaligi yerlarida meva yetishtirishni ko'paytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umurzoqov U.P. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisodiyot-moliya", 2007. – bet. 276.
2. Umurzoqov U.P. "Fermer xo'jaligini tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish asoslari". O'quv qo'llanma. T.: TIAME, 2004. -141 b.
3. Kavalenko N.Ya., Umurzakov O.P., Toshboev A.J., Dehqonchilik iqtisodiyoti va tashkil etilishi. Darslik. M.: "ad. RGAU-MSHA K.A. Timeryazev nomidagi", 2008, -206 b.
4. Toshboev A. J., Abduvosiqov A. A., Yangiboev X. B., Mirzaev M. U., Agrobiznesda innovatsion faoliyat. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisodiyot-moliya", 2021. - 380 b.
5. Madaliev A. A.1, Mamatqulov A. V.2, Xoliqov S. R.3, Mamadiyarov D. U. J.5 - Korruptsiyaga qarshi kurashni tashkil etishning jihatlar va ehtiyoji, Positive School Psychology jurnali 2022, jild. 6, No 6, 7617-7625 <http://journalppw.com>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

6. Samatov G'. A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. - T.: ToshDAU Press, 2015. 177 b.
7. Ergashev R.X., Xoliqov S.R. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik, T.: "IqtisodiyotMoliya", 2019.-396 b.
8. Karimqulov, K. M., Uzohkov, I. E., & Sariqulov, M. K. (2020). O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi: muammolar va yechimlar. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 115-123.
9. Safoevna, S. Z., & Sagdullaevna, T. F. (2021). Pandemiya sharoitida O'zbekiston Respublikasi aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash: muammolar va yechimlar. ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali, 11(2), 1320-1325.
10. Adxamovna, B. G. (2022). O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi mexanizmlarini takomillashtirish. Jahon iqtisodiyoti va moliya byulleteni, 15, 135-139.
11. Shaumarov, M., Toderich, K. N., Shuyskaya, E. V., Ismail, S., Radjabov, T. F., & Kozan, O. (2012). O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash va tabiiy resurs bazasini mustahkamlash uchun cho'l yaylovlarini birgalikda boshqarish. Markaziy Osiyoda yaylovlarni boshqarish: yaxshilangan turmush sharoitini muvozanatlash, biologik xilma-xillikni saqlash va yerlarni muhofaza qilish, 381-404.

